



2020- yilning yanvar-iyul oylarida Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinni tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

5 006,8
mldr. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

101,2 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmining o'sish sur'atlari

99,8 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan
bozor xizmatlari hajmining o'sish
sur'atlari

2 596,6
ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2020- yil
yanvar-iyul

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 006,8 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 534,2 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.



Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

Xizmatlar - jami	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
shu jumladan:		101,2
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	229 579,0	105,2
Moliyaviy xizmatlar	894 343,1	149,6
Transport xizmatlari	1 131 920,3	96,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 060 773,3	97,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	200 900,0	75,1
Savdo xizmatlari	1 603 976,7	96,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	126 290,4	87,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	227 915,4	94,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	76 136,7	81,8
Ijara xizmatlari	123 347,0	91,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	94 661,6	90,9
Shaxsiy xizmatlar	96 584,2	88,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	55 096,1	70,4
Boshqa xizmatlar	146 094,4	95,1


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi 32,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,6 %), moliyaviy xizmatlar (17,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,6 %) qayd etildi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush sog'lilni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,5 %, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,9 %, shaxsiy xizmatlar - 1,9 % hissasiga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,
2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan % da
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (49,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,2 %).

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoxda.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari hajmi sezilarli darajada (29,6 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (24,9 % ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (18,2 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (12,3 % ga), shaxsiy xizmatlar (11,4 % ga), shuningdek, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (9,1 % ga) da pasayish kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi 32,0 % ni tashkil etib, bu 1 604,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylajmi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 78,3 % iga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,9 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi
894,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.**



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi
17,9 % ni tashkil etdi.**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan

**306,0 mlrd. so'mga hajmning ko'payishi
kuzatildi.**



Ularning o'sishi 49,6 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi, shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

92,0 %
Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

5,6 %
Sug'urta bo'yicha xizmatlar

2,4 %
Yordamchi moliyaviy faoliyat

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,0 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,6 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,4 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)




2020- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning hajmi 229,6 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 105,2 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida noshirlik xizmatlari - 1,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,0 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 1,0 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 227,9 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiylajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,9 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 75,1 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 200,9 mlrd. so'mga teng bo'lган.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmidagi ulushi atigi 4,0 % ni tashkil etdi.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar

- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va gayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,7 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)


2020- yilning yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 76,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,5 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 81,8 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Xizmatlarning umumiyo'ti hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 59,8 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa shahar va tumanlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush G'ijduvon (9,0 %), Buxoro (3,9 %), Vobkent (3,3 %) tumanlari va Kogon shahri (3,2 %) da qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Qorovulbozor (1,6 %), Olot (2,3 %), Kogon (2,4 %), Jondor (2,7 %) va Peshko' (2,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyo'ti hajmida Buxoro shahrining ulushi 58,5 % ni tashkil etgan.

Qorovulbozor tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 1,9 % kuzatilgan.



**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Buxoro viloyati ¹⁾	5 006 844,9	101,2	2 596,6
Olot	116 258,5	98,6	1 172,0
Buxoro	192 759,8	97,7	1 156,3
Vobkent	167 192,6	97,4	1 195,9
G'ijduvon	451 724,1	99,2	1 485,9
Jondor	132 461,4	98,0	759,5
Kogon	118 443,2	99,5	1 512,7
Qorako'l	148 750,8	97,7	907,6
Qorovulbozor	80 897,5	86,1	4 420,6
Peshko'	132 977,6	98,3	1 082,9
Romitan	158 547,6	96,2	1 118,9
Shofirkon	143 265,7	97,5	808,0
shaharlar:			
Buxoro shahri	3 004 651,9	103,9	10 708,0
Kogon shahri	158 914,2	97,4	2 596,6

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'ijduvon (451 724,1 mlrd. so'm), Buxoro (192 759,8 mlrd. so'm), Vobkent (167 192,6 mlrd. so'm) tumanlari va Kogon shahri (158 914,2 mlrd. so'm) da qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari


2020- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 596,9 ming so'm-ga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,8 % ni tashkil etdi.



2019- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Buxoro shahrida 10 708,0 ming so'mdan Jondor tumanida 759,5 ming so'mgacha oralig'i-da bo'ladi. Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Taqqoslash uchun: Qorovulbozor tumanida aholi soni (2020 yilning 1- avgust holatida 18,3 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nis-batan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 4 420,6 ming so'mni tashkil etdi.

➤ Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

➤ Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar soni - 16 359 birlikda

Ularning umumiy
sonidagi ulushi - 63,7 %

O'tgan yilning shu davriga
nisbatan o'sish
sur'atlari - 116,1 %



**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning
1- avgust holatiga
ko'ra, xizmatlar soha-
sida faoliyat ko'rsa-
tayotgan korxona va
tashkilotlarning ulushi
- 63,7 %, sanoat -
15,3 %, qishloq, o'-
mon va baliq xo'jaligi
sohasi- 10,8 % ga

yetdi va atigi 10,2 % i qurilish hissasiga to'g'ri keldi.

2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (40,1 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 12,1 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 9,0 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 14087 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligida savdo xizmatlari – 36,6 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari – 11,3 %, tashish va saqlash - 9,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlari ko'rsatish - 3,9 % axborot va aloqa - 1,6 % hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 37,3 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2272 taga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- avgust holatiga ko'ra ularning soni 2840 taga ko'paygan.



Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 27,3 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1408 taga ko'paydi va 6560 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 25,2 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 400 taga ko'paydi va 1988 tani tashkil etdi.

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlari, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel.: 65-220-83-13